

Zuxurova Mohinur Baxodir qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy

Rassomlik va Dizayn institute "Badiiy kulolchilik" mutaxasisligi magistrani

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston noan'anaviy kulolchiligi rivojlanishi va unda A.Kedrinning tutgan o'rni xaqida ba'tafsil ma'lumot berilgan. Shu jumladan A.Kedrin ishlaringning ijodiy tahlili ham keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** kulol, rassom, loy, asar, panno, ko'za, hunarmandchilik, kompozitsiya, dekor, gips, dekoratsiya, an'ana.

**Аннотация:** В статье представлена подробная информация о развитии нетрадиционного гончарства Узбекистана и роли в нем А. Кедрина, а также творческий анализ творчества А. Кедрина.

**Ключевые слова:** гончар, художник, глина, работа, панно, кувшин, ремесло, композиция, декор, гипс, украшение, традиция.

**Abstract:** This article provides detailed information about the development of non-traditional pottery of Uzbekistan and the role of A. Kedrin in it. It also includes a creative analysis of A. Kedrin's work.

**Key words:** potter, artist, clay, work, panel, jug, craft, composition, decor, plaster, decoration, tradition.

Murakkab sistema, u milliy madaniy qadriyatlar tizimida muhim o'rinn tutadi. Badiiy kulolchilik san'ati badiiy elementlarga ega bo'lgunga qadar uzoq evolyutsion yo'lni bosib o'tdi. An'anaviy badiiy hunarmandchilik tarixning turli davrlarida goh yuksak darajada rivojlanib, goh turg'unlikka uchradi. Lekin shuni ta'kidlash joizki, yillar, asrlar davomida yana professional jihatdan yuksaklarga ko'tarildi va mustahkamlandi. Xalq san'ati – bu badiiy sistema, uning zamirida yotgan mustahkam strukturalariga shahsiy – mualliflik dekarativ san'ati ta'sir etmaydi, lekin rivojlanib kelayotgan dekorativ san'atning noan'anaviy turlariga an'anaviy xalq san'ati o'z ta'sirini o'tkazadi: "asosan bu plastik shakllarida namoyon bo'ladi va ifoda tilining dekarativligida". (A.Xakimov)<sup>106</sup>

XX asrning 70 yillarida mahobatli dekoartiv san'atning usullari bilan birga (mozayka, relyefli pannolar – odatda tosh, gips yoki betondan bajarilgan) binolarning ichki interyerlarini bezatishda birinchi marotaba kulolchilik kompozisiyalar ham qo'llaniladi. Ushbu zamonaviy masalalarni yangicha xal etishda akadem ta'lim sistemasidan o'tgan professional rassom – kulollar o'zlarining ijodiy tafakkur va g'oyalalarini taqdim etishadi.

A.Kedrin 1974 yilda "Zarafshon" zallarini interyerlariga devoriy dumaloq maganlarni joylashtiradi, ularda o'rta asr me'morchilik mavzulari taqdim etilgan. Lekin

<sup>106</sup> А.А.Хакимов "Современное декоративное искусство Республики Средней Азии" Т., 1988

shuni ta'kidlash joizki, qadimgi bezak mavzulari va tasvirlari erkin talqin eilmagan, kompozisiyani konstruktiv tuzilishida yaqqol ko'zga tashlanadi.

A.Kedrin o'zining xuddi shu usulda bajarilgan dekorativ laganlarini Toshkentning boshqa binolarini interyerlariga ham joylashtirgan edi. Uning asarlaridagi asosiy urg'u o'zbek xalqi badiiy merosini va Sharq poetikasi an'analarini izohlashga qaratilgan. Lekin yangi tendensiyalar plastik yechimda namoyon bo'lмаган.

Kedrinning kompozisiyalarida "idish" mavzusi (lagan) asosiy vazifani bajaradi va mustaqil model sifatida talqin qilingan. Shuning bilan birga, qadimgi mavzuning shaklini o'zgartirishga uning evolyusiyasiga e'tibor qilinmagan.

Lekin 1980 yillardan boshlab, Kedrin bino interyerlarini yangicha bezashga xarakat qiladi.

Ushbu yillarda O'zbekiston rassom - kulollarining ijodida gul, o'simliksimon, islimiyl, xandasaviy naqshlar, afsonaviy mavjudotlar tasviri ham tarannum etgan.

A.Kedrinning "idish - oila" deb nomlangan dekorativ kompozisiyasi Hamza nomidagi milliy teatrning interyeriga joylashtirilgan (Qo'qon - 1987 yil. Materiali shamot).

Uch figuradan iborat kompozisiyada oila ramziy tarzda ifodalangan. Model sifatida olingan "idish" (ko'za) - an'anaviy mavzu - uning shakli muallifning o'ziga xos g'oyasi bo'yicha erkin talqin etilgan. Model sifatida olingan an'anaviy mavzu (ko'za) yordam vazifasini bajarib, kompozision yechimiga yangi ohang kirgizgan.

Dekorativ figuralarning plastik asosi - bu shakli, terrakota fakturasi va kompozision yechimi bo'yicha bir xil hajmlardan iborat bo'lib, ularning tema qismi uslublashtirilgan ko'zalarga o'xshab ketadi.

An'anaviy mavzuning yangi talqini, shakllarni o'ziga xosligi kompozisiyaga ajoyib ta'ssurot bag'ishlagan.

A.Kedrin o'zining asarlariga ijodiy yondoshib, qadimgi shakl va naqsh mavzularni yangicha talqin etishga harakat qiladi.

Bu yo'naliш uning ijodiy ishlarida namoyon bo'lgan: "Xalqlar do'stligi saroyi"ni interyerlarida va Toshkent metrosining "Kosmonavtlar prospekti" deb nomlangan bekating interyerlarida.

A.Kedrin "Xalqlar do'stligi saroyi"ga o'zining ikkita mahobatli pannolarini joylashtiradi. Asosan ushbu kompozisiyalar Mashrab asarlariga bag'ishlangan: biri "Guli nav (Bahor guli)", ikkinchisi "Guli chax (Kuz guli)".

Ushbu kompozisiyalarning asosini ramziy tarzda ifodalangan daraxtlar tasvirlangan: birinchisi - ko'k-yashil fonga joylashtirilgan bo'lib, tabiatni uyg'onish vaqtini ifodalangan (Bahor guli), ikkinchisi sarg'ish-terrakota foniga joylashtirilgan bo'lib, kuzning holatini ko'rsatib beradi. Daraxtlarni tegida relyef bezakli laganlar joylashtirilgan.

"Lagan" shakli model sifatida qolgan bo'lsa-da, lekin ushbu an'anaviy mavzu kompozisiyani konstruksiyalash va modellashtirish jarayonida unga umuman boshqacha kompozision ohangni taqdim etadi.

Bundan tashqari, Kedrin tabiatga murojaat qilgan – tabiat sokin, lekin go'zal. Bahor va kuzning ifodalab, ularning holatini san'atga aylantirib, tabiat go'zalligini tarannum etgan. Oqibatda Kedrinning "novator" g'oyasi kompozisiyaning plastik yechimida va rang majmuasida namoyon bo'lgan.

Darhaqiqat, an'anaviy mavzularning metaforik tabiatni ijodiy tahlil qilingan, murakkab hajmiy – plastik yechimiga ega, ushbu kompozisiya qotib qolgan tendensiyalarni yangicha – "novator usulida" – hal etish mumkinligini namoyish etib bergen.

Qadimgi an'anaviy "lagan" mavzusi metroning "Kosmonavtlar prospekti" deb nomlangan bekatning interyerlarida ham aks etilgan.

Ushbu dekorativ pannoda "lagan" shakli model sifatida qolgan bo'lsa-da, lekin A.Kedrin ushbu mavzuni o'ziga xos erkin ravishda talqin etgan: ko'k-moviy, rangli mahobatli idish ichiga sharni joylab, "lagan" obraziga kosmos tasnifini taqdim etgan. Bir tomondan, kompozisiyaga go'zallikni tarannum etuvchi usul topilgan, ikkinchidan – koinotning latofatini beqiyosligini aks ettiruvchi plastik yechim taqdim etilgan.

Xullas ijodkorning falsafiy g'oyasi shaxsiy noyob iste'dodi ushbu kompozitsiyada namoyon bo'lgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. А.А.Хакимов "Современное декоративное искусство Республики Средней Азии" Т., 1988
2. А.А.Хакимов "Современная декоративная пластика Республики Средней Азии" Т., 1992
3. С.Алиева "Рассом ижодида шакл ва ранг фалсафаси". Санъат журнали 1/2014